

PSYCHOLOGICAL BASES FOR THE FORMATION OF EMOTIONAL LEADERSHIP SKILLS IN MILITARY LEADERS

Abbasov Farukh Feruzovich

Ministry of Defence of the Republic of Uzbekistan

Annotation: *The article substantiates the necessity of developing emotional intelligence in military leaders. The concept of emotional leadership, its role in military management, effective communication and psychological leadership is revealed. The ways of increasing the effectiveness of leadership activity on the basis of innovative training programme are considered.*

Key words: *emotional intelligence, emotional leadership, military leaders, military psychology, psychological training, conflict management, military governance, stress coping techniques, military training, psychological resilience, military communication culture.*

Аннотация: *В статье обосновывается необходимость развития эмоционального интеллекта у военных руководителей. Раскрывается понятие эмоционального лидерства, его роль в военном управлении, эффективной коммуникации и психологическом руководстве. Рассматриваются способы повышения эффективности руководящей деятельности на основе программы инновационных тренингов.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, эмоциональное лидерство, военные руководители, военная психология, психологическая подготовка, управление конфликтами, военное управление, методы преодоления стресса, военная тренировка, психологическая устойчивость, культура военного общения.*

Annotatsiya: *Maqolada harbiy rahbarlarda emotsional intellektni rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Emotsional yetakchilik tushunchasi, uning harbiy boshqaruvdagi roli, samarali muloqot va psixologik boshqaruvdagi o'рни yoritiladi. Innovatsion trening dasturi asosida rahbarlik faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *emotsional intellekt, emotsional yetakchilik, harbiy rahbarlar, harbiy psixologiya, psixologik tayyorgarlik, konfliktni boshqarish, harbiy boshqaruv, stressni yengish usullari, harbiy trening, ruxiy barqarorlik, harbiy muloqot madaniyati.*

Harbiy rahbarning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat jismoniy tayyorgarligi va intellektual salohiyati bilan belgilanadi, balki uning emotsional barqarorligi, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yish qobiliyati va psixologik boshqaruv ko'nikmalariga ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy harbiy xizmat sharoitlarida rahbarlardan faqatgina

buyruq berish va nazorat qilish funksiyalarini emas, balki inson resurslarini samarali boshqarish, psixologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy-emotsional muhitni barqarorlashtirishni ham talab qilmoqda.

Bugungi kun armiyasi real jangovar vaziyatlar bilan bir qatorda, murakkab psixologik bosim ostida ishlashga, shaxslararo munosabatlarni tartibga solishga va boshqaruvda inson salohiyatiga tayanuvchi yondashuvlarni tatbiq etishga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, emotsional intellekt, empatiya, stressga chidamlilik, samarali muloqot va konfliktlarni hal etish kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar harbiy rahbarlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori darajadagi emotsional kompetensiyaga ega bo'lgan harbiy rahbarlar o'z bo'ysunuvchilarining psixologik holatini aniq baholay oladi, ijtimoiy motivatsiyani kuchaytiradi va jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday rahbarlar o'z-o'zini anglash va boshqalarni tushunish orqali samarali boshqaruv uslublarini shakllantira oladi.

Emotsional yetakchilik tushunchasi. Emotsional yetakchilik — bu rahbarlik faoliyatida emotsional intellektdan samarali foydalanish orqali jamoani boshqarish, qaror qabul qilish va insoniy munosabatlarni tartibga solish qobiliyatidir. D. Goulman (1995) tomonidan ilgari surilgan ushbu konsepsiya rahbarning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, atrofdagi odamlarning emotsional holatini sezish hamda samarali ijtimoiy muloqotni yo'lga qo'yish malakalarini o'z ichiga oladi.

Goulman modeliga ko'ra, emotsional yetakchilik besh asosiy komponentdan iborat:

O'zini anglash (Self-awareness) — shaxsning o'z hissiyotlarini aniqlash, ularning manbasini tushunish va bu emotsiyalar qaror qabul qilishga qanday ta'sir ko'rsatishini anglay olish qobiliyati. Bu komponent rahbarga ichki refleksiya qilish va real vaqt rejimida o'z holatini baholash imkonini beradi.

Emotsiyalarni boshqarish (Self-regulation) — hissiyotlarni konstruktiv yo'nalishda boshqarish, stress holatlarida o'zini tuta bilish va impulsiv harakatlardan tiyilish. Bu ko'nikma rahbarga muvozanatli va qat'iy pozitsiyani saqlashda yordam beradi.

Motivatsiya — ichki rag'bat, maqsadga yo'naltirilganlik va ijobiy fikrlash. Motivatsiyalangan rahbar nafaqat o'z faoliyatida yuksak natijalarga erishadi, balki boshqalarni ham ilhomlantiradi.

Empatiya (Empathy) — boshqalarning emotsional holatini sezish, ularning nuqtai nazarini tushunish va unga nisbatan sezgirlik ko'rsatish. Empatik rahbar bo'ysunuvchilarning ehtiyojlarini inobatga olib, ularning ishonchini mustahkamlashga qodir bo'ladi.

Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills) — jamoaviy muloqot, ziddiyatlarni hal etish, samarali rahbarlik qilish va boshqalar bilan konstruktiv munosabat o'rnatish.

qobiliyati. Bu rahbarga ijobiy ijtimoiy muhit yaratish va barqaror guruh dinamikasini saqlab qolishga imkon beradi.

Emotsional yetakchilik, ayniqsa harbiy boshqaruv tizimida, yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyat, bosim ostida ishlash va insoniy resurslarni boshqarish zarurati bo'lgan sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun zamonaviy harbiy rahbarlar tayyorgarligida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Harbiy rahbarlar uchun emotsional intellektning zarurati. Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimi nafaqat taktik va strategik bilimlarni, balki rahbarning yuqori darajadagi psixologik va emotsional salohiyatini ham talab qiladi. Ayniqsa, emotsional intellekt harbiy rahbarlikning muhim omillaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. U insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur anglash, his-tuyg'ularni boshqarish va jamoani ruhlantirishga xizmat qiladi.

Harbiy bo'linma boshliqlarining emotsional yetakchilik kompetensiyasi quyidagi muhim jihatlar uchun zarurdir:

Bo'ysunuvchilarning ishonchini qozonish. Harbiy jamoalarda ishonch – bu samaradorlik, sadoqat va buyruqlarning so'zsiz bajarilishi garovidir. Emotsional yetakchi o'zining halolligi, ochiqligi va empatik yondashuvi bilan shaxsiy ishonch muhitini shakllantira oladi.

Ziddiyatlarni konstruktiv hal etish. Harbiy xizmatda ziddiyatlar tabiiy holat sanaladi. Bunday vaziyatlarda rahbarning hissiy sabr-bardoshi, tinglash ko'nikmasi va obyektiv fikrlashi ziddiyatni kuchaytirmay, aksincha, uni ijobiy yechimga yo'naltirish imkonini beradi.

Emotsional barqarorlikni saqlash. Harbiy sharoitlar, ayniqsa favqulodda holatlar, kuchli stress, xavf va beqarorlik bilan kechadi. Emotsional barqaror rahbar o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladi, bo'linmaga ruhiy tayanch bo'la oladi va vaziyatda sog'lom fikr bilan harakat qilishni ta'minlaydi.

Psixologik xavfsizlik muhitini shakllantirish. Emotsional intellektga ega rahbar bo'linma a'zolarining psixologik holatiga befarq bo'lmaydi, ularning xavotir, qo'rquv yoki tushkunlikka tushmasligiga e'tibor qaratadi. Bu esa o'z navbatida xizmat intizomi, ruhiy barqarorlik va bo'linmaning umumiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori emotsional intellektga ega rahbarlar harbiy xizmatda yuqori ko'rsatkichlarga erishibgina qolmay, o'z jamoalarida salbiy stress holatlarini kamaytirishga ham katta hissa qo'shadilar. Shu bois, harbiy kadrlar tayyorlash jarayonida emotsional yetakchilikka oid maxsus treninglar, psixologik mashg'ulotlar va amaliy mashqlarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimi nafaqat texnik va strategik tayyorgarlikni, balki inson omiliga asoslangan psixologik yondashuvni ham talab etmoqda. Harbiy rahbarlar faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoani ruhlantiruvchi, muvozanatli,

empatik va stressga chidamli shaxs sifatida yetakchilik qilishi zarur. Xususan, harbiy sharoitlardagi tez o'zgaruvchan va noaniq vaziyatlarda emotsional intellekt va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar harbiy rahbarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar (D. Goulman, 1995; Mayer & Salovey, 1997) shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt — bu shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsional holatini idrok etish va samarali ijtimoiy munosabatlar o'rnatish qobiliyatidir. Ushbu salohiyat rahbarlik faoliyatida muvozanatli qarorlar qabul qilish, bo'ysunuvchilarning ishonchini qozonish va jamoada psixologik xavfsizlik muhitini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ammo harbiy kadrlarda bu kompetensiyalar tabiiy shakllanmaydi — ular tizimli tarzda rivojlantirilishi, mashq qilinishi va real vaziyatlarda qo'llanilishi zarur. Shu bois maqolada harbiy rahbarlarda emotsional yetakchilikni shakllantirishga qaratilgan 12 haftalik trening dasturi ishlab chiqildi. Dastur harbiy kontekstga moslashtirilgan holda emotsional intellektni rivojlantirish, ziddiyatlarni boshqarish, stressga qarshi kurashish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

Bundan ko'zlangan maqsad, harbiy rahbarlar uchun emotsional yetakchilikning nazariy asoslarini yoritish va ularni amaliy mashg'ulotlar orqali shakllantirish bo'yicha tizimli trening dasturini taklif qilishdan iborat. Mazkur yondashuv rahbarlik samaradorligini oshirish, harbiy jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va inson omiliga asoslangan boshqaruv tamoyillarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kutilayotgan ilmiy natijalar. Taklif etilayotgan emotsional yetakchilikka asoslangan trening dasturini harbiy rahbarlar tayyorgarligi tizimiga integratsiya qilish quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishishni nazarda tutadi:

Harbiy rahbarlarning emotsional intellekti (EI) darajasini oshirish. Dastur orqali rahbarlarda o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish va samarali ijtimoiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa boshqaruv jarayonlarida emotsional yetakchilikning amaliy namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Intizom va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash. EI darajasi yuqori rahbarlar tomonidan boshqariladigan bo'linmalarda intizom, xizmatga nisbatan mas'uliyat va ijtimoiy uyg'unlikning yuqori darajada bo'lishi kuzatiladi. Trening davomida ijtimoiy ko'nikmalar va empatiya rivojlanadi, bu esa jamoaviy uyg'unlikni ta'minlaydi.

Ruhiy barqaror va psixologik jihatdan muvozanatli harbiy jamoalarni shakllantirish. Dastur stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va ziddiyatlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali jamoa a'zolari o'rtasida sog'lom psixologik muhit barpo etilishiga ko'maklashadi.

Bo'ysunuvchilar tomonidan rahbar faoliyatining ijobiy baholanishi. Emotsional yetakchilik kompetensiyasiga ega bo'lgan rahbarlar bo'ysunuvchilari tomonidan adolatli, tushunuvchi va ilhomlantiruvchi yetakchi sifatida e'tirof etilishi kutiladi. Bu esa harbiy jamoalarda ishonch muhitini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki bo'linma ichida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar, nazariy asoslar va ishlab chiqilgan trening modeliga tayangan holda quyidagi xulosa va takliflar ilgari suriladi:

Emotsional yetakchilik harbiy rahbarlarning samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlovchi strategik kompetensiyalardan biri bo'lib, harbiy jamoalarning psixologik muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Harbiy rahbarning emotsional intellekt darajasi (EI) yuqori bo'lsa, bu bo'ysunuvchilarning ishonchi, intizomi, motivatsiyasi va umumiy ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy rahbarlarni emotsional yetakchilikka tayyorlash orqali ichki boshqaruv sifati va harbiy xizmat samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud.

Takliflar:

Harbiy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga "Emotsional yetakchilik asoslari" modulini joriy etish, uni nazariy va amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish.

Harbiy bo'linmalar rahbarlari uchun maxsus trening dasturlari ishlab chiqilishi va har 6–12 oyda yangilab borilishi.

Rahbarlarning emotsional salohiyatini muntazam psixologik monitoring va baholash tizimi orqali aniqlab borish va yakka tartibdagi rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy jamoalarda psixologik xavfsizlik va ochiq muloqot muhitini shakllantirishda emotsional yetakchilik tamoyillaridan foydalanish.

Harbiy rahbarlarning ruxiy barqarorligi va ijtimoiy o'zaro ta'sirini kuchaytirish maqsadida trening simulyatsiyalari, rolda o'yinlar va real holatlarga asoslangan qaror qabul qilish mashqlarini amaliyotga tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Goleman D. Emotional Intelligence (1995).
2. Fiedler F. Leader Behavior and Leadership Style (1967).
3. Harbiy psixologiya (O'zbekiston Harbiy Akademiyasi darsligi).
4. Kuryumov L. Voennaya psixologiya i psixodiagnostika.
5. M. B. Narziev – "Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari" (2020).